



Ilminur SHUKUROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: psychologist.ilminur@gmail.com

ADU dotsenti, PhD A.Odiljonova taqrizi asosida

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MULTIGENERATIONAL FAMILIES: ANALYSIS OF MODERN FOREIGN RESEARCH

Annotation

This article analyzes the socio-psychological aspects of multi-generational families based on foreign research, studying their specific aspects in the family structure, intergenerational relations and upbringing process. In particular, special attention is paid to the issues of the emotional support system in the family, psychological connection between generations and the transmission of family values. The article discusses how multi-generational families adapt to modern society, factors ensuring family cohesion and mechanisms of social interaction based on foreign research.

Key words: Multigenerational family, personal development, psychological connection, family cohesion, family values, social and emotional development, intergenerational connection, family relationships.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МНОГОПОКОЛЕННЫХ СЕМЕЙ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

В статье анализируются социально-психологические аспекты многопоколенных семей на основе зарубежных исследований, рассматриваются их специфические аспекты в структуре семьи, межпоколенных отношениях и процессе воспитания. В частности, особое внимание уделяется вопросам системы эмоциональной поддержки в семье, психологической связи поколений, трансмиссии семейных ценностей. В статье на основе зарубежных исследований рассматриваются вопросы адаптации многопоколенных семей к современному обществу, факторы, обеспечивающие сплоченность семьи, и механизмы социального взаимодействия.

Ключевые слова: Многопоколенная семья, личностное развитие, психологическая связь, сплоченность семьи, семейные ценности, социальное и эмоциональное развитие, межпоколенческие связи, семейные отношения.

KO'P AVLODLI OILALARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI: ZAMONAVIY XORIJIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini xorijiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinib, ularning oilaviy tuzilishi, avlodlararo munosabatlar va tarbiya jarayonidagi o'ziga xos jihatlarini o'rganiladi. Xususan, oiladagi emotsional qo'llab-quvvatlash tizimi, avlodlar o'rtasidagi psixologik bog'liqlik va oilaviy qadriyatlarining uzatilishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada ko'p avlodli oilalarning zamonaviy jamiyat sharoitida qanday moslashayotgani, oilaviy birdamlikni ta'minlash omillari hamda ijtimoiy o'zaro ta'sir mexanizmlari xorijiy tadqiqotlar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ko'p avlodli oila, shaxsiy rivojlanish, psixologik bog'liqlik, oilaviy birdamlik, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy va emotsional rivojlanish, avlodlararo bog'liqlik, oilaviy munosabatlar.

Kirish. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va oilaviy munosabatlarning rivojlanishi uzoq yillar davomida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Ushbu oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini turli ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lib, xorijiy olimlarning yondashuvlari ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. NAFI tahliliy markazi tomonidan 2023-yil o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, deyarli 43% yosh rossiyaliklar ota-onalari yoki boshqa keksa qarindoshlari bilan yashaydi[10]. Tadqiqotlarda ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy moslashuvi, oilaviy birdamlik, avlodlararo bog'liqlik va psixologik barqarorlik masalalariga alohida e'tibor markazida turadi.

Xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, ko'p avlodli oilalar shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ta'sir va madaniy merosning uzatilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jumladan, psixologik tadqiqotlarda bunday oilalarning bolalar tarbiyasiga, ijtimoiy moslashuviga va hissiy barqarorligiga ta'siri ilmiy asosda izohlangan. Shu bilan birga, oiladagi rollarning taqsimlanishi, tarbiya uslublari va avlodlararo muloqot sifati oilaviy muhitning psixologik barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi keng tahlil qilingan.

Ushbu maqolada xorijiy olimlarning ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga oid yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlar

asosida bunday oilalarning funksional jihatlarini, oilaviy qadriyatlarining uzatilishi va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi ilmiy asosda sharhlanadi. Mazkur maqola ushbu yo'nalishdagi muhim ilmiy ishlarga tayangan holda ko'p avlodli oilalarning zamonaviy jamiyatdagi o'rini chuqurroq o'rganish va bu boradagi tadqiqotlar xulosalarini umumlashtirishni maqsad qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'p avlodli oilalar tizimini o'rganishda Urie Bronfenbrenner insonning rivojlanish jarayoni mustaqil jarayon bo'lmay, balki unga atrof-muhit omillari va shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishi holatlarni o'rganilgan[1]. Uning nazariyasiga ko'ra, bolalar atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sirda bo'lishlari, shuningdek, barqaror va emotsional jihatdan bog'langan shaxslar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishlari muhim hisoblanadi.

Yana bir psixolog olimlar Dekovic, M., va Janssens, J. M tomonidan olib borilgan tadqiqotda ota-onalarning tarbiya uslubining bolalarning ijtimoiy xulq-atvori va tengdoshlari orasidagi mavqei bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan o'rganilgan[2].

Laurence Steinberg o'z tadqiqotlarida ota-onalar va o'smirlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sifati bolaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi haqida fikr yuritadi[3]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy jamiyatlarda bolalarning o'ziga ishonchi, muvaffaqiyatga intilishi,

ijtimoiy moslashuvi va o'zini tuta bilish qobiliyati ota-onaning farzand tarbiyasidagi yo'nalishi bilan bevosita bog'liqdir.

Jon Carlson, Len Sperry, Judith A. Lewislar o'z tadqiqotlarida, oilaviy tizimni o'rganishda zamonaviy tadqiqotlar oilaning ichki tuzilishiga qo'shimcha ravishda, uning kengroq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitlarini ham inobatga olish lozimligini ta'kidlaydi[4].

Stephanie H. Shin tadqiqotida AQSH shaharlarida ko'p avlodli oilalarning yashash sharoitlari va ular duch kelayotgan muammolarni o'rganadi[4]. Uning tahlillariga ko'ra, urbanizatsiya jarayoni bunday oilalarga bir qator ijobiy va salbiy ta'sirlar ko'rsatgani aytiladi[6].

Edgar Liu va Hazel Easthope tomonidan ko'p avlodli oilalar o'zining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida xizmat qilishini, ayniqsa bolalar tarbiyasida katta avlodning ishtiroki yuqori ekanligini qayd etib o'tishgan[5]. Ular moddiy va ma'naviy jihatdan o'zaro yordam berish mavjudligini ham ko'rsatib o'tishgan. Biroq tadqiqotda bunday yashash shaklining ba'zi cheklovlari va qiyinchiliklari ham mavjud ekanligi qayd etilgan.

Samantha Marsh, Rosie Dobson, Ralph Maddisonlar oilada muntazamlikning yo'qligi, haddan tashqari shovqin va beqarorlik bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishining sustlashishiga hamda ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvlariga ta'sir qilishi mumkin ekanligi haqida tadqiqotlar davomida ta'kidlaganlar[7].

Ko'p avlodli oilalarda tarbiyalangan bolalar odatda turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qilish tajribasiga ega bo'lishadi, bu esa ularning ijtimoiy intellektini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda Shukurova tadqiqotlarida o'smirlik davrida ijtimoiy intellektning shakllanishi oilaviy muhit va avlodlararo munosabatlar bilan uzviy bog'liq hisoblanadi[9].

Ko'p avlodli oilalar tizimida bobo va buvilar tarbiyaviy hamda hissiy qo'llab-quvvatlovchi shaxslar sifatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu oilalarda bolalar tarbiyasi nafaqat ota-onalar, balki boshqa katta avlod vakillari tomonidan ham amalga oshiriladi. Christine A. Fruhauf va boshqalarning tadqiqotlari bobo va buvilar farzand tarbiyasidagi faol ishtirokining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganishga qaratilgan[8]. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bobo va buvilar bolalar uchun mustahkam hissiy tayanch bo'lib xizmat qiladi va oilaviy birdamlikning saqlanishiga hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarini nazariy tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy tadqiqotlar asosida ko'p avlodli oilalar tizimining nazariy asoslarini tahlil qilish, avlodlararo munosabatlarning shaxs rivojlanishiga ta'sirini o'rganish va turli yondashuvlarni umumlashtirish hisoblanadi. Mazkur tadqiqot empirik ma'lumotlarga emas, balki mavjud ilmiy nazariyalarning tahliliga asoslangan bo'lib, bunda nazariy tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi.

Nazariy tahlil usuli ko'p avlodli oilalar fenomenini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish va turli tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida Urie Bronfenbrenner, Dekovic va Janssens, Laurence Steinberg, Jon Carlson va boshq., Stephanie H. Shin, Edgar Liu va Hazel Easthope, Christine A. Fruhauf va boshq. kabi olimlarning tadqiqotlari tahlil qilindi. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari ko'p avlodli oilalarning shaxs rivojlanishiga ta'siri, tarbiya uslublari, ijtimoiy moslashuv va oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimlari kabi jihatlarini yoritib beradi.

Kontent-tahlil usuli orqali mavzuga oid ilmiy manbalardagi asosiy tushunchalar, dalillar va natijalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali avlodlararo munosabatlar, oilaviy tarbiya uslublari, bobo va buvilar ishtirokining bolalar psixologik rivojlanishiga ta'siri kabi jihatlar ajratib olindi.

Bundan tashqari, Christine A. Fruhauf va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan GRANDcares modeli tahlil qilinib, bobo va buvilarning bolalar tarbiyasidagi o'rni va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan intervensiya dasturlari tadqiqot natijalari bilan bog'landi[8].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'p avlodli oilalar tizimi bolalar va o'smirlarning shaxsiy rivojlanishida muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida ushbu oilalarning farzand tarbiyasiga ta'siri, avlodlararo munosabatlari sifati va oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimlari chuqur o'rganildi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, oilaviy muhit bolaning psixologik rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. Bronfenbrenner tomonidan ilgari surilgan ekologik nazariya asosida shunday xulosa chiqarish mumkin, bola rivojlanishi nafaqat oilaning ichki omillari, balki atrof-muhit va ijtimoiy munosabatlarning ta'siri bilan ham belgilanadi[1]. Tadqiqot natijalari oiladagi avlodlararo munosabatlar, ota-ona va bobo-buvilar ishtirokida olib boriladigan tarbiya jarayoni bolalar uchun hissiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy mustaqillik shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Dekovic va Janssens tomonidan olib borilgan tadqiqot ham ushbu xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Ularning tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi yondashuvi bolaning ijtimoiy moslashuvi va o'z tengdoshlari orasidagi mavqeiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi[2]. Bu esa, ko'p avlodli oilalarda bolalar turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari natijasida ijtimoiy tajriba orttirishini anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy tarbiya uslublari bolalarning ijtimoiy va emosional rivojlanishiga turlicha ta'sir qiladi. Laurence Steinberg tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar va o'smirlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sifati bolaning ijtimoiy xulq-atvori va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi[3]. Bundan kelib chiqib, oilada demokratik tarbiya usuli qo'llanilganida bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi, mustaqilligi va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo'lishi aniqlangan. Ko'p avlodli oilalarda esa tarbiya jarayoni faqat ota-onalar emas, balki bobo-buvilar tomonidan ham amalga oshirilishi natijasida turli tarbiya uslublari bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi mumkin. Jon Carlson, Len Sperry va Judith A. Lewis o'z tadqiqotlarida oilaviy tizimni o'rganishda oilaning ichki tuzilishiga qo'shimcha ravishda uning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitlari ham hisobga olinishi kerakligini ta'kidlaydi[4]. Bu esa oilaviy munosabatlarning murakkabligini tushunishga yordam beradi.

Ko'p avlodli oilalar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida xizmat qiladi. Edgar Liu va Hazel Easthope tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bunday oilalar bolalar tarbiyasida bobo va buvilar ishtirokini oshirish bilan birga, oilaviy birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi[5]. Bobo va buvilar oiladagi moddiy va ma'naviy resurslarni taqsimlash orqali farzandlarining tarbiyasiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Biroq, ushbu jarayon ba'zi cheklov va qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Stephanie H. Shin tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya jarayoni ko'p avlodli oilalar tuzilishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi[6]. Shaharlashuv bunday oilalar uchun moddiy resurslar va imkoniyatlar yaratishi mumkin, biroq bu ayni paytda avlodlararo masofalanish va oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimining zaiflashishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, xorijiy tadqiqotlarning nazariy tahlili shuni tasdiqlaydiki, oilaning ushbu shakli inson psixologiyasi va ijtimoiy hayotining muhim elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Ko'p avlodli oilalar inson jamiyatidagi muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, ularning ichki tuzilishi, tarbiya uslublari va avlodlararo munosabatlari shaxs rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik determinantlarini tahlil qilish va ularning jamiyat hamda individ rivojlanishidagi o'rni aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy muhit bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bronfenbrenner nazariyasiga ko'ra, shaxs rivojlanishi mustaqil kechmay, balki oilaviy va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqdir[1]. Xorijiy tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, ko'p avlodli oilalarda o'sayotgan bolalar hissiy barqarorlik,

ijtimoiy moslashuvchanlik va shaxsiy mustaqillik kabi xususiyatlarni rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Ota-onalar va bobo-buvilarning tarbiya uslublari farzandlarning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Dekovic va Janssens tadqiqotlariga ko'ra, tarbiya uslublari bolalarning tengdoshlari orasidagi mavqei va ijtimoiy faolligiga ta'sir qilishi mumkin[2]. Steinberg esa ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabatlar sifatining bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi va muvaffaqiyat motivatsiyasiga ta'sirini o'rgangan[3]. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, oiladagi barqaror va hissiy bog'langan munosabatlar bolalarning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir qiladi va ularning jamiyatga moslashish jarayonini yengillashtiradi.

Ko'p avlodli oilalar nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining shakllanishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Bunday oilalar moddiy va ma'naviy resurslarni avlodlar o'rtasida taqsimlash orqali oilaviy birdamlikni saqlash va jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, urbanizatsiya va zamonaviy jamiyatdagi

o'zgarishlar natijasida oilaviy tizimlarning shakllanishi va funktsionalligi ham o'zgarib bormoqda. Stephanie H. Shin tadqiqotiga ko'ra, shaharlashuv jarayoni ko'p avlodli oilalarga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatib, avlodlararo masofalanish va oilaviy an'analar transformatsiyasiga olib kelishi mumkin[6].

Tahlil qilingan tadqiqotlar asosida bobo va buvilarning tarbiya jarayonidagi roli alohida e'tiborga molik ekanligi aniqlangan. Fruhauf va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan GRANDcares modeli bobo va buvilarning tarbiyaviy ishtirokini ilmiy asosda qo'llab-quvvatlovchi intervensiya dasturi sifatida tavsiflangan[8]. Ushbu model asosida oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash, bobo va buvilarning farzand tarbiyasidagi ishtirokini oshirish hamda jamiyatda ularning rolini yanada mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Ushbu xulosalar asosida, ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik determinantlarini yanada chuqurroq o'rganish, ularning ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni mustahkamlash va oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar zarurligi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Urie Bronfenbrenner. "The Ecology of Human Development" /Harvard university press/ 1979. Page-60.
2. Dekovic, M., va Janssens, J. M "Parents' Child-Rearing Style and Child's Sociometric Status" /Developmental Psychology, 28. 1992 year. Page-10-11.
3. Laurence Steinberg. "We Know Some Things: Parent-Adolescent Relationships in Retrospect and Prospect" / Journal of research on adolescence, 11(1), 1-19. 2001 year.
4. Jon Carlson, Len Sperry, Judith A. Lewis "Family therapy techniques". Published in 2005. Great Britain by Routledge.
5. Edgar Liu and Hazel Easthope. Multi-generation households in Australian cities. AHURI Final Report No. 181. Melbourne: Australian Housing and Urban Research Institute. February 2012.
6. Shin, S. H. Planning for a Multi-generational Future: Policies, Regulations, and Designs for Multi-generational Housing in the United States. Massachusetts Institute of Technology. May 24, 2012
7. Samantha Marsh, Rosie Dobson, Ralph Maddison. "The Relationship Between Household Chaos and Child, Parent, and Family" BMC Public Health. 2020. Page-27.
8. Fruhauf, C. A., Yancura, L. A., Riggs, N. R., Fox, A., Mendoza, A. N., & Ooki, N. (2020). The importance of family-focused and strengths-based approaches to interventions for grandfamilies. Journal of Family Theory & Review, 12(4), 478-491.
9. Shukurova, I. (2024). Psychological development of social intelligence in adolescence. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(1), 65-69.
10. <https://www.cian.ru/novosti-analitiki-vyjasnili-skolko-molodyh-ljudej-zhivut-otdelno-ot-roditelej-333360/>